

**KASB-HUNAR MADANIYATI VA TILDA  
SAQLANAYOTGAN QADRIYATLAR**

*Kaypnazarova Miyrixan Kalmuratovna*

*NDPI Gumanitar va ijtimoiy fanlarni masofadan o'qitish kafedrasini  
docenti f.f.d. (PhD)*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada qoraqalpoq xalqining an'anaviy kasb-hunar madaniyati va uning tilda saqlanib qolgan qadriyatlari tahlil qilinadi. Qoraqalpoq xalqining dehqonchilik, chorvachilik, baliqchilik kabi kasb-hunarlarini orqali o'z madaniyati, ahloqiy qarashlari va ijtimoiy an'analari tilda qanday aks etilishi yoritiladi. Kasb-hunar bilan bog'liq atamalar xalqning tarixiy va madaniy qadriyatlarini o'zida mujassam etib, avloddan-avlodga o'tib kelmoqda. Ushbu maqola xalq tilidagi kasbiy leksik birliklarining namoyon bo'lishi va saqlanishining ahamiyatini ko'rsatishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** Qoraqalpoq tili, xalq madaniyati, kasb-hunarga oid leksik birliklar, qadriyatlari, tilda saqlanayotgan meros.

**Kirish**

Qoraqalpoq xalqining madaniyati qadimdan turli kasb-hunarlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular xalqning o'ziga xosligini saqlashda muhim rol o'ynaydi. An'anaviy kasb-hunarlar faqatgina iqtisodiy yoki amaliy ahamiyatga ega emas, balki xalqning ijtimoiy va madaniy qadriyatlari aks ettiradi. Qoraqalpoq tilshunosligida Sh.Karimxojaevning [1] dehqonchilik, Q. Paxratdinovning [2] chorvachilik, Q.Bekniyazovning [3] meva va poliz nomlari bo'yicha olib borgan tadqiqot ishlari qoraqalpoq tilshunosligida katta hissa bo'lib qo'shildi.

Mazkur maqolada kasb-hunar madaniyati va uning tilda qanday ifodalanishi tahlil qilinadi, shuningdek, tildagi ayrim o'ziga xos kasbiy so'zlarining ahamiyati misollar bilan yoritiladi. Qoraqalpoq xalqining qadimdan kelayotgan kasb turlari va ularni aks ettiruvchi leksik atamalar tahlil qilinadi.

**Kasb-hunar madaniyatining tilda namoyon bo'lishi.**

Dehqonchilik, chorvachilik va baliqchilik kasbi qadim davrlardan boshlab xalqimiz turmush tarzining ajralmas qismi bo'lib, o'z navbatida muayan hududlarda mazkur kasb turlarining bo'lishi bilan bog'liq dialektal kasbiy so'zlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lган. Kasbiy dialektal so'zlar dialektal muqobillarga ega bo'lib, milliy adabiy til leksik tarkibini yangi tushunchalar bilan boyitadi. Biz mazkur maqolada kasbiy leksik birliklar misolida tahlil qilamiz.

**Ayǵaq** – yiǵilgan ekinlarga hujum qiladigan hayvonlardan himoyalanish uchun qo'yilgan belgi nomi. Bu kasbiy so'z shimoliy sheva vakillarining tilida turlicha

qo'llaniladi. Masalan: Shumanay va Qonliko'l tumanlarida dala tepasida kiyintirilgan odam shakli ko'rinishini ayqaq desalar, Xo'jayli tumanida qoriqshı Chmiboy, Kegayli tumanlarda «atiz qaraqshı» deb atashadi.

Chorvachilikda molni saqlash, mavsumga, ob-havoga qarab molxonalarga joylash, em-hashaq tayyorlash kabi ishlar amalga oshiriladi. Masalan:

**Мойнапа** – buzoqning bo'niga bog'lanadigan yug'on yassi qilib to'qilgan ip yoki tikilgan mato. Muynoq tumani mahalliy aholisi «буршақ» deb atashadi [4].

Baliq ovlash quollarining paydo bo'lishi bu soha bo'yicha kasbiy leksikaning yangidan-yangi birliklar bilan to'ldirilishiga manba bo'lib xizmat qiladi.

**Шолпі** – ov quolida ushlangan baliqni tashqariga suzib olishda qo'llaniladigan moslama. Shumanay qoraqalpoqlari tilida bu uskunani atashda sholpi atamasi bilan birga súzeki varyanti ham ishlatiladi.

**Kasb-hunar so'zlarida saqlanayotgan qadriyatlar.** Ko'p kasb-hunarlargaga oid so'zlar xalqning ahloqiy va ijtimoiy qarashlarini ifodalagan holda saqlangan [5]. Qoraqalpoq tili kasbiy leksikasida kasba oyd qurallar, moslamalar va uskunalar ularning yasalishida kasbga nisbatan sir-sinoatlari mavjud, bu esa xalqning hayotiy tajribasidan dalilat beradi. Masalan, baliq ovlash, saqlash va ov quollarining deyarli hammasi qo'l mehnati bilan yasalgan.

Shimoliy sheva hududlarida baliq ovlashda foydalanilgan ushan keme – kemaning yirik turi, awqayıq-qayıqning yirik turi, qayıq turlaridan qusqayıq, nárete qayıq, kólqayıq va hakoza; qaraqus – arqonni bog'lash uchun moslashtirilgan qayıq uchi kabi atamalar kasbiy leksikada saqlanib qolgan, shuningdek, Qung'irin, Muynaq tumanlarida «Baliqchi» deb nimlangan ovul nomlari ham bor. Baliqchilik kasbi bilan bog'liq dialektal birliklar qoraqalpoq tilida xalqning muayan tushunchaga nom berishda betakror, nafis so'z tanlash, nomlashda mahoratini ko'rsatadi. Harqanday kasbiy leksik birliklarning nomlanishida xalqning milliy qadryatlari o'z ifodasini topgan.

**Avloddan- avlodga o'tgan kasb-hunar an'anaları.** Qoraqalpoq xalqining o'ziga xos kasb-hunarlari xalq orasida hurmat bilan qaralgan va ayrim kasbiy so'zlar xalqning etnosi bilan bog'lanib ketgan. Dehqonchilikda ekin nomlarining atamasi allomorf xarakterda ham namoyon bo'lishi mumkin. Maslan, juxori o'simligining endi danakka to'lishi “**bóke**” deb ataladi. Odatta xalq tilida yangi chaqolaq tuqqon ayolni “**bókeledi**” deyishadi. Insonning dunyoga kelishi va tabiatda juxorining danaklashi, biologik holatidagi uxshashliklarning birdek nomlanishida tushunshalarni soddalashtirilganininh guvohi bo'lamiz.

Chorvachilikda tuyaning burniga taqiladigan ip **murındıq//murınsa** deb nomlanadi. Qoraqalpoq xalqining an'analarining biri kelin va ug'liga mehribonlik qiladigan, ularning yangi hayotida yo'lboshchilik qilish uchun ularga ot va ona saylashadi. Ularni murındıq ota, murındıq opa deyishadi. Demak, murınsa-tuyaning

burnidan tortib yuriladigan ip bo'lsa, murindiq ota va opa yoshlarni iziga ergashtirib yuradigan insonlar. Bu atamalarning leksik-semantik ma'nosi birdek tushunchaga ega [8].

### **Xulosa**

Kasbiy so'zlar tarkibida ilmiy kasbiy so'zlar va xalq og'zaki so'zlashuv nutqiga oid so'zlar ham mavjud. Ularning nominativ atamaga ega bo'lishi bilan birga metaforalashish holatlari ham ko'zatiladi.

Har qanday kasbiy dialektizmlarning nomlanishida Qoraqalpog'istonning shimoliy tumanlarida yashayotgan mahalliy aholining dehqonchilik, chorvachilik va baliqchilik kasbi bilan bog'liq xalq tajribasi o'z ifodasini topadi.

### **Foydalaniman adabiyotlar:**

1. Каримхожаев Ш. Вопросы изучения терминов земледелия в каракалпакском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1970.
2. Пахратдинов Қ. Животноводческая лексика в каракалпакском языке: Автореф. дис. ... канд филол. наук. – Нукус, 1992.
3. Бекниязов Қ. Қарақалпоқ тилидаги мева ва полиз номлари: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Нукус, 2006.
4. Насыров Д.С., Доспанов О. Қарақалпақ тилинин диалектологиялық сөзлиги. – Нөкис, 1983. – Б. 80.
5. Berdiyev, M. Qoraqalpoq xalqining an'anaviy madaniyati va til qadriyatları. Nukus 2015 QDU nashriyoti.
6. M.K.Kaypnazarova Qaraqalpaq tili arqa dialekти käsiplik leksikası. Nökis "Bilim" baspası 2021